

NUTQ SO‘ZLASH JARAYONIDA IMPROVIZATSIYA

Qudratova Manija Shohmansur qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishining 3-bosqich 306-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada til, nutq va improvizatsiya tushunchalariga ma’lumot berilgan. Nutq so‘zlash jarayonida improvizatsiyadan samarali foydalanish va mukammal o‘rganish haqida fikrlar bayon qilingan. Bu jarayonni qanday ruhiy ko‘tarinkilik va mahorat bilan ishlatadigan leksik qatlamlarni o‘rgatish, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va qay darajada to‘liq bayon qilib berish haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Til, nutq, improvizatsiya, so‘z, so‘z qo‘llash mahorati, qobiliyat, mahorat, ruhiy ko‘tarinkilik, ommaviy tushuntirish, milliy o‘zlik.

“Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”

Abdulla Avloniy

Insonning ma’nan yetuk bo‘lib kamol topishida, o‘z jamiyatining ma’daniy va ma’rifiy rivojlanishida ona tilining o‘rni muhimdir. Xalqlarni birlashtirgan, tarbiyalagan, urf-odat, an’ana va madaniyatlarni saqlagan, avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlagan va barcha kishilarning qalbidagi muhabbat belgisini his qildira olgan o‘zga bir ruhiyat ham bu ona tilimizdir. So‘z mulkinging sultoni Alisher Navoiy bobomiz “Ko‘ngil qulfi maxraning qulfi til va gulfin kalitin so‘z bil”, ya’ni inson qalbi xazinasining kaliti so‘zdir, deganlarida tilning nainki muloqot, balki dillarni bog‘lovchi vosita ekanligiga e’tibor qaratgan. Xalqimizning necha asrlilik boy tarixi, ko‘hna va serqirra madaniyati o‘zbek tili ta’sirida shakllangan. Ulug‘ shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Shu tilda o‘z ona tilimiz baralla jaranglagan va rivojlanib kelinmoqda.

Bog‘bon qo‘l mehnati bilan o‘z ekinlarini yetishtirib parvarish qilsa, o‘qituvchi o‘zining nutq va til boyligi bilan kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib shakllanadi. Oz so‘zlagan va nutq boyligi o‘ta sust bo‘lgan ayrim o‘qituvchilarning ta’lim berish jarayonida 45 daqiqa ham qiyin va zerikarli o‘tishi shuningdek, tayyorlanish uchun ma’lum bir vaqt talab etishi ham mumkin. Nutqning boyligi va serqirraligi, o‘qituvchining aqlli va zehnliligi, o‘z kasbini seva oladigan va uni oqlab bera oladigan kishi ekanligidan darakdir.

Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning ogʻzaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon boʻlishidagi jarayonlar, yaʼni soʻzlash jarayoni va uning natijasi - xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar tushuniladi.¹

Nutq aloqa-aralashuv vazifasidan tashqari yana boshqa vazifalar, chunonchi, poetik vazifa ham bajarishi mumkin. Nutqning alohida koʻrinishi oʻqishdir. Har bir kishining nutqi individual, oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi; vaholanki, asosiy til unsurlari — lugʻat tarkibi va grammatik qurilishi yakka shaxslargagina tegishli boʻlmay, umumnikidir, yaʼni muayyan til jamoasiga umuman taalluqli boʻladi. Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bogʻliqdir. Nutqda kishining oʻy-fikrlari shakllanadi va mavjud boʻladi. Nutq tufayli va nutq asosida borliqni umumlashgan holda mavhumiy aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib, jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy tushunchaviy fikrlash mumkin boʻladi. Nutq kishi ruhiyatining boshqa jihatlarini, uning sezgilari, idroki, xotirasi, oʻy-xayollari, hissiyoti, irodasi, boshqalarning namoyon boʻlishi va amal qilishida, kishi ongining rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniqlik, ravonlik, soddalik, taʼsirchanlik nutqning eng muhim belgilari boʻlib qolishi kerak.

Improvizatsiya (lot. *improvisus* — kutilmagan, bexosdan) — sheʼr, musiqa va maʼlum bir asarni oldindan tayyorgarliksiz, ijro davomida ijod etish; aktyor oʻyinida bexosdan paydo boʻladigan ilhom, ijodiy fantaziya, ruhiy koʻtarinkilik, fikr, soʻz, ohang va tasvirning erkinligi.² Yaʼni, tayyorgarliksiz bayon etish usuli, oʻqituvchi oʻquvchilarga savol yoki topshiriq beradi va uning javobini tayyorgarliksiz tushuntirib berishlarini soʻraydi. Bu usulning afzalliklari shundaki, oʻquvchilar oʻz shaxsiy fikrlariga, dunyoqarashiga ega boʻladilar, ularning ogʻzaki nutqi rivojlanadi, har bir savol va topshiriqlarni xotirada tez-tez tahlil qila olish koʻnikmalari shakllanadi, fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, soʻz qoʻllash mahoratidan foydalana olishni oʻrganadi. Aktyor oʻyinidagi improvizatsiya ijro etilayotgan rolni jonlantiradi, unga yangi maʼno beradi. Qadimgi xalq teatri aktyorlari — skomoroxlar, mimlar, bizda masharaboz va qiziqchilar, ayniqsa, italyan xalq komediya teatri (“*Del Arte*”) aktyorlarining oʻyinida improvizatsiya asosiy oʻrin egallagan. Oʻzbek aktyorlaridan Soyib Xoʻjayev, Gʻani Aʼzamov kabi aktyorlar ijodida improvizatsiya muhim rol oʻynagan.

Nutq soʻzlash jarayonida improvizatsiya baʼzi kishilarda juda yuqori va baʼzilarda shakllanmay qolgan. Improvizatsiya jarayonida qoʻrqib oʻz fikrlarini bayon

¹ Abdurahob Mavdaliyev OʻZME birinchi jild. Toshkent 200-yil.

² OʻZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

qila olmaydigan kishilar bu jarayonni sekinlik bilan olib boradi va bu uning nutqi samarasiz va zerikarli bo'lishidan darak beradi. Nutq so'zlash jarayonida har qanday tashqi so'zlarga e'tibor qaratmasdan o'z fikrlash qobiliyatiga ishongan insonda bu jarayon juda ishonchli va samarali ro'y beradi. Shuningdek, ommaning oldiga chiqib gapirishdan oldin paydo bo'ladigan qo'rquvni yengish va bor hayajonni to'xtatish uchun ba'zilar ko'zgu oldida tayyorlanishni, muvaffaqiyatni tasavvur qilishni tavsiya qiladi. Lekin bu maslahatlarning ko'pchiligi foydasiz va nojo'ya ta'sirga ega. Ko'p insonlar nutq so'zlash jarayonida o'ziga e'tibor beradi vaholanki, nutq jarayonida fikrlanadigan va qo'llanadigan jumlar e'tiborsiz qoldiriladi. Eng avvalo, o'zingizga e'tibor bermang, aksincha nutqingizning go'zalligi va so'zlarni qay darajada to'g'ri va o'rinli tarzda ishlatganingizga e'tibor qaring. Avvalo, siz yuzlab yoki hatto minglab odamlarning ko'zi oldida chiqib so'zlashdan oldin hayajonlanish — bu so'zlashning o'zidan emas, balki ommaviy tahqirlanishdan qo'rqish ekanligini tushunib olishingiz kerak. Siz esa odamlar o'zingiz haqingizda nima deb o'ylashidan xavotir olasiz va qo'rqasiz. Bu qo'rquv natijasida o'z fikringizni to'liq bayon qila olmaysiz. Siz bayon eta oladigan nutqning muvaffaqiyati odamlar siz haqingizda nima deb o'ylashiga bog'liq emas. Bunda o'z fikringizni tinglovchilarga qanchalik darajada to'g'ri va aniq, shuningdek, chiroyli nutq orqali yetkazganingiz muhim. Tinglovchilar sizning nutqingizning asosiy g'oyasi va uning ma'nosini tushunishi kerak. Buning eng yaxshi usuli — har doimgi suhbatlarga qaraganda kengroq fikrlash va fikr ifodalash.. Buning uchun siz e'tiboringizni o'zingizga emas, balki g'oyalaringiz va qay darajada fikrni yetkazib bera oladigan nutqingizga ko'proq qaratishingiz kerak. Nutqingiz tugaganda odamlar sizni jahldor, asabiy, sofdil, beg'ubor, dadil yoki muloyim deb o'ylashi mumkin. Lekin, agar siz ularga o'z fikrlaringizni yetkaza olmagan bo'lsangiz, unda oldingizga qo'yilgan vazifa bajarilmay qolgan bo'ladi va siz fikrlaringizni yetkaza olmaydigan darajada bo'lasiz. Qo'rquvni yenga olishni o'rgansangiz nutq jarayonida har qanday improvizatsiya holatlariga tayyor holda kira olasiz. Ko'rinishingiz qanday ekanligi va o'zingizni kuzatib videosuratlariga olishingiz foydasiz. Bu jarayonni qilmasakda, o'zimizga juda ko'p e'tibor beramiz, ortiqcha e'tibor o'zimizga emas, balki nutqimiz va uning qay darajada to'liq bayon etilishiga e'tibor qaratishimiz lozim. E'tiborni o'zingizga emas, balki tinglovchilarga aytmoqchi bo'lgan va yetkaza oladigan so'zlaringizga qaratsangiz xavotirning eng katta qismi yo'qoladi va siz shundagina yaxshi nutq so'zlovchi, shuningdek, o'z maqsadingizga erishgan bo'lasiz. Shunda siz unchalik tortinmaydigan va qo'rquvni yenga oladigan darajada shakllanasiz. Sizning asosiy vazifangiz bu yuborilgan narsa, tashlagan axborot, tinglovchilar esa uni oluvchidir. Tinglovchilarga qay darajada yetkaza olish, nutqni mukammal bayon qilish va to'g'ri ma'lumotni berish esa sizga bog'liqdir. O'z

g'oyalarigizni aniqlash, takomillashtirish, rivojlantirish va yetkazishni o'rgansangiz, shunda siz albatta muvaffaqiyatga erishasiz.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda Taraqqiyot strategiyasi doirasida Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu yo'lda milliy o'zligimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli bo'lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Ona tilimizning xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosidagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, yosh-avlodni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, davlat tilini hayotga to'laqonli tatbiq etish barchamizning fuqarolik burchimizdir.

Shuningdek, nutq so'zlashda har qanday improvizatsiya holatlari qo'rquv va hayajon hodisalarni yengib o'ta olishingiz, kelajakda o'z kasbingizga nisbatan so'z qo'llash mahoratingiz yanada oshib borishidan dalolat beradi. Haqiqiy saodat – bu mustahkam iymonimizda! Iymonimiz mustahkamligi esa tilimizning go'zalligidadir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abduvahob Mavdaliyev O'ZME birinchi jild. Toshkent 2000-yil.
2. O'ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil